

JADDIDCHILIK. TURKISTON MUSTAQILLIGIDA TARAQQIYPARVARLARNING TUTADIGAN O'RNI**Musoyeva Ruxshona Farxodovna****Akrom Ochilov**

Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi

yuridik akademik Litsey 2-bosqich 2-guruh o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakati namoyandalarning millat kelajagi, o'z vatanlarining mustaqilligi uchun, yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish hamda o'z yurtlarining mavqesini oshirish uchun olib borgan faoliyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyot, jadid, ma'rifat, madrasa, maktab, ta'lim, tarbiya, gazeta, erk, teatr, taraqqiyot.

Jadidchilik arab tilidan olingan bo'lib yangi degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik dastlab XIX asr oxiri XX asr boshida Qrimda vujudga kelgan. Va asta sekinlik bilan O'rta Osiyoda tarqaldi.

XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg'unlik, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni holdan toydirgani Rusiya uchun o'lkani zabt etishga ajoyib imkoniyat bo'lgan. Va bu davr mobaynida uni turg'un va tutqun saqlashga urinardi. Mana shunday bir sharoitda Vatanni butunlay yo'q bo'lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotda boshlash jadidlar zimmasiga tushdi.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Bu davrda mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yilgan edi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaygan edi

Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini toxtatish, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. Bularning barchasi esa Rusiyaning bizning vatanimizga nisbatan qilgan yaxshiliklari edi. O'z vatani va millatining kelajagi uchun jon fido qiladigan taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalarida mavjud edi. Va bu taraqqiyparvarlar o'z yurtlarini obod va vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish bo'lgan.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Boltihoji Sulonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O'sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm) turardi.

Jadidlar o'zbek xalqi hayotiga tom ma'nodagi milliy teatrni olib kirdi. Milliy matbaaning vujudga kelishi bilan kitob bosish ishi yo'lga qo'yila boshlandi. Yevropa ko'p ovozli musiqa san'ati bilan tanishgan jadidlar o'zbek an'anaviy musiqa uslublarini ham isloh qilishga da'vat etishgan. 1919- yilda Toshkentning Eski shahar qismida jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy bo'limi tashkil etildi. Shu tarzda jadidlar san'at vositasi bilan millat qadrini ko'tarish, san'atning deyarli barcha turlarini yuksaltirishga intildilar. "O'zbekiston Respublikasi"

maxsus jildining tegishli bo'limlariga adabiyoti, teatri, musiqasiga jadidchilikning aksar vakillari yoshlarga dastavval diniy ta'lim bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o'qitish masalasini kun tartibiga qo'yidilar. Ular musulmon maktablarining ta'lim usuli va dasturlarini isloh qilib, yangicha usuldagi maktablarni ochdilar. Behbudiy, Munavvarqori, Abdulvohid Burhonov, Abdulla Avloniy va boshqalar yangi usul maktablari uchun darsliklar yozib, nashr etishgan. Jadidchilik harakati davomida ularning o'z matbuoti shakllandi.

1999-yil 16-18-sentabrda Toshkentda "Markaziy Osiyo 20-asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (Jadidchilik, Muxtoriyatchilik, Istiqlolchilik)" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazilib, unda dunyoning turli mashxur davtlari jumladan AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqloqchilik harakatlari to'g'risida jahon ilm-fanida to'plangan so'nggi xulosalar yuzasidan o'zbekistonlik hamkasblari bilan o'zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati jahonshumul ahamiyatga molik hodisa ekanligi e'tirof qilindi.

Xulosa: Vatanimizning boshqa yurtlar orasida mavqeini oshirishda, uni mustaqil davlat qilishda, yurt kelajagi va kamolini boyitishda jadidchilik namoyondalarining o'rni katta. Va ularning madligi sababli biz bugungi kunda shunday barkamol yurtda yashamoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

2 ↑ "Jadidizm". Ensiklopedik lug'at. 1. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1988. p. 271.

3 ↑ "Jadidizm". O'zbek sovet ensiklopediyasi. 4. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1973. 278-279 b.